

**INGLIZ TILIDA TALAFFUZNI TO`G`RI SHAKLLANTIRISH VA
TAKOMILLASHTIRISH**

Ergasheva Sevinch Bahodir qizi

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti 2-bosqich talabasi

Email: sevinchergasheva111@gmail.com

Annotatsiya: Ingliz tili juda keng miqyosda ommalashib borayotgan va dunyo bo'yicha mavqeい oshib borayotgan tillardan biridir. O'zbekistonda ham ushbu til mustaqillikdan so`ng ta`limning barcha bosqichlarida o`qitilishi yo`lga qo`yilgan. Qo`sishimcha qilib aytganda ingliz tilini mukammal bilgan kishiga keng ko`lamli imkoniyatlar yaratilmoqda. Mukammal o`rganishda talaffuzga alohida ahamiyat berish kerak. Shu bois, bu maqolada ingliz tilida so`zlarni to`g`ri talaffuz qilish hamda talaffuzni yaxshilash bo'yicha bir nechta usullardan foydalanish kerakligi keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: talaffuz, biznes karta, mashq qilish, tinglash, YouTube, Spotify, OAV.

Kirish. Bilamizki ,hozirgi kunda chet tillarini yaxshi bilgan va til sertifikatlariga ega bo`lgan insonlarga juda ko`p qulayliklar, imkoniyatlar yaratilgan. Bunda to`rtta ko`nikmalar (speking, listening, reading, writing) ni o`qitish bo'yicha ko`pgina islohotlar o'tkazilmoqda. Mana shu skillardan yuqori ball to`plab, yuqori darajali sertifikatlarga ega bo`lganlarga bir qancha imtiyozlar berilmoqda. Masalan, o'rta ta`limning yuqori bosqich o'quvchilarini to`rtta skill bo'yicha kerakli ballarni qo'lga kiritsalar, ingliz tili fani blogi yechilgan hisob bo'ladi. O'qituvchilar ushbu sertifikatni olishsa ellik foizlik ustama haqqi qo'shib beriladi.

Asosiy qism. Til - og'zaki va yozma shaklida insonlararo aloqa o`rnatishga xizmat qiladi. Og'zaki nutq talaffuz yordamida amalga oshadi. Talaffuz ingliz tilini o`rganishda eng qiyin jihatlardan biridir. Chunki, rasman ingliz tilida 26 ta harf

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo`lsa ,tovushlar soni 44 tadir. Bu tovushlarning har bittasini o`rganib chiqish ancha vaqt talab qiladi. Odatda, odamlar unga e'tibor bermaydilar. Shunga qaramay, mukammal talaffuz sizning biznes kartangizdir, chunki siz aytgan so'zlariningiz tufayli birinchi taassurot paydo bo'ladi. Ayniqsa ,birinchi marta ingliz tilini o`rganishni boshlagan o`quvchilar ko`p narsalarni to`g`ri deb qabul qilib, tez eslab qolishga harakat qiladilar. Shuning uchun o`qituvchilar ma`lumot berishda ko`p izlanishlar orqali o`ziga ishongan holda,ehtiyotkorona bo`lgani ma`qul. Sababi ozgina noto`g`ri ma`lumot berib qo`yib o`quvchining yodida bir umr qolishi va uni o`zgartirishi qiyin bo`lishi mumkin.Shuni misol qilib aytish mumkinki,mening ingliz tili o`qituvchim “stanza” so`zini “[shtanza]” kabi talaffuz qilish orqali bizga o`zi bilmagan holda noto`g`ri xabar berdilar. Biz buni to`g`ri deb, shu holda eslab qoldik. Keyinchalik boshqa ustoz tomonidan bu so`z “[stanzə]” kabi talaffuz qilish kerakligi uqtirildi. Ammo “[stanzə]” holida miyyamizga singdirish bir`oz qiyin bo`ldi. Bugungi kunda ingliz tilini talaffuz qilishda qiynalayotgan ko'plab til o'rganuvchilari bor. Ehtimol, ayrim kishilar ko'p yillar davomida o'rgangandirlar, ular murakkab inglizcha matnlarni o'qiy oladilar ,Netflix va YouTube videolarini tomosha qilishlari va ularni tushunishlari mumkin ... lekin ular ingliz tilida so'zlashuvchilar bilan gaplashganda, haqiqiy ingliz odami ularni zo'rg'a tushunishlari mumkin. Shunda ular til ko`nikmalariga shubhalanadigan bo`lib, hattoki gapirishda ikkilanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, talaffuz ko'plab til o'rganuvchilarining mavjud bo'lgan eng katta muammosidir. Quyidagi tavsiyalar orqali bugungi kunda ingliz tilida talaffuzni qanday yaxshilash bo'yicha ba'zi fikrlarni beraman.

Boshqalarni tinglash. Mahalliy ma'ruzachilarni ko'proq tinglashga harakat qiling, ayniqsa, ular tovushlarni qanday ifodalashiga diqqat qiling. Ko'proq ingliz tilidagi teleseriallarni, YouTube saytidagi “White Eagle”,” Pick Up Limes” ,”English Fluency Journey” va “Ted Talks” kanallaridagi videolarni tomosha qilishni tavsiya qilaman. ”Spotify” platformasidagi podkastlarni eshitishni ham kanda qilmang. Bitta podkastni bir necha marotaba tinglab,uning transkripsiyasini qog`ozga tushirish orqali podcast nima haqida ekanligini yanada yaxshi tushunib

olasiz. Audiokitoblarni ham tinglab ,chet elliklarning nutqiga taqlid qilish orqali ham talaffuzni to`g`ri shakllantirish mumkin.

O'zingizni tinglang. So'zlarni qanday talaffuz qilayotganingizni va intonatsiyani qanday amalga oshirayotganingizga e'tibor bering. Agar qiyinchiliklarga duch kelsangiz, o'z ovozingizni ovoz yozish qurilmasiga yozib, ovozni bir necha marta tinglang. Shunday qilib, siz o'z zaif tomonlaringizni aniqlab, muammoli tovushlar va intonatsiya ustida ishlashingiz mumkin.

Ko'zgu oldida mashq qilish. Ko'zgu oldida o'zingiz bilan muntazam suhbatlashishga odatlaning. Og'zaki nutqingizni kuzatib boring – til va lablar artikulyatsiyasi qanday o'zgarmoqda. Siz ommaviy axborot vositalarining (OAV) nutqi orqali ham o'rganishingiz mumkin, keyin esa o'z nutqingizni OAV nutqiga solishtirgan holda takrorlashingiz va keyin so'zlar artikulyatsiyaga mos keladimiyo'qligini solishtirishingiz kerak.

Ovoz chiqarib o'qish. Jurnal va kitoblarni ovoz chiqarib o'qing. Bu kulgili tuyulishi mumkindir, lekin imkon qadar baland ovoz bilan o'qish orqali o'zingizni yaxshiroq eshitasiz va so'zlarni yaxshiroq talaffuz qilasiz.

"Practice makes a man perfect. Talaffuzni muntazam ravishda – do'stlaringiz bilan yoki o'zingiz bilan birga mashq qiling. Faqat boshqalarni tinglash orqali talaffuzni yaxshilashingiz mumkin emas. Ko'proq gapiring ,agar so'zlarning talaffuziga shubha qilsangiz,tarjima qiladigan programmalarda o'sha so`zning qanday o'qilishi va qanday talaffuz qilinishi tinglab,o'zingiz ham bir necha marta takrorlang.

Og'zingizni boshqacha harakatlantirishni mashq qiling. Talaffuzning katta qismi og'izdagi mushaklarni odatdagidan boshqacha ishlashiga olib keladi. Sizning lablaringiz, tilingiz, tomog'ingiz va jag'ingiz tovushlarni chiqarishda ishtirot etadi. Esimda, men frantsuz tilini o'rganayotganimda, ba'zida kun bo'yи frantsuz tilida gapirganimdan og'zim og'riyotganini payqadim. Bu yaxshi narsa: mening mushaklarim odatdagidan boshqacha ishladi va ular kuchayib bordi.

Xulosa.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1. Ingliz tili talaffuzini to`g`ri shakllantirishva yaxshilash borasidagi muammolar doimo dolzarb bo`lib kelgan. Bu yerda nafaqat eshitish - talaffuz bazasi, balki u bilan chambarchas bog'liq bo`lgan boshqa barcha nutq qobiliyatlari ham shakllanadi. Afsuski, faqatgina ta`lim muassasalaridagi ingliz tili darslari,kurslar bu muammoni hal qilmaydi. Shu sababli siz muntazam ravishda mashqlarni bajarib,tez-tez amaliyotda ham qo`llab tursangiz maqsadga muvofiq bo`ladi.

2. To`g`ri talaffuz ingliz tilini o`z ona tilimizdek gapishimiz uchun, yuqori natijalarga erishishimiz uchun katta rol o`ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.<https://goaravetisyany.ru/uz/konspekt-zanyatiya-po-formirovaniyu-proiznositelnyh-navykov-zvuk-s/>
2. <https://qobiljon.uz/pdf/ingliz-tili-kitob.pdf>
3. <https://fledu.uz/uz/ingliz-tilida-talaffuzni-qanday-yaxshilash-mumkin/>
- 4.<https://www.leonardoenglish.com/blog/how-to-improve-your-english-pronunciation>